

GOLDEN BRAIN

Scientific Journal

ISSN: 2181-4120



Volume 1, Issue 6



Google
Scholar



zenodo

2023/6
March

ISSN 2181-4120
VOLUME 1, ISSUE 6
MARCH 2023



<https://researchedu.org/index.php/goldenbrain>

“GOLDEN BRAIN” SCIENTIFIC JOURNAL**VOLUME 1, ISSUE 6, MARCH, 2023****EDITORIAL BOARD****G. Kholmurodova***Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University***A. Madaliev***Professor, Doctor of Economics, Tashkent State Agrarian University***G. Sotiboldieva***Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University***U. Rashidova***Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Philological Sciences, Samarkand State University***D. Darmonov***Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University***X. Abduxakimova***Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University***U. Ruzmetov***Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Chemical Sciences, National University of Uzbekistan***M. Yusupova***Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University***M. Kambarov***Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Namangan State University***S. Sadaddinova***Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Physics and Mathematics Sciences, Tashkent University of Information Technologies***M. Fayzullaev***Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) Geographical Sciences, Karshi State University***Z. Muminova***Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine***B. Kuldashov***Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine***Kh. Askarov***Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Fergana Polytechnic Institute***S. Nazarova***Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Bukhara State University***O. Rahmonov***Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Fergana Polytechnic Institute***G. Tangirova***Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University***Z. Koryogdiev***Doctor of Philosophy (Phd) in Historical Sciences, Bukhara State University***S. Ubaydullaev***Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology***R. Yuldasheva***Associate Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University***M. Yuldashova***Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Namangan State University***EDITORIAL SECRETARY: J.ESHONKULOV**

EKOLOGIYANI MUHOFAZA QILISHDA O'SIMLIKLARNING O'RNI

To'xtamurodova Nafosat Xo'shmurod qizi

Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalari instituti assistenti

Lolayeva Iroda Isoq qizi

Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalari instituti talabasi

***Annotatsiya.** Tabiat va ekologiyaning tarkibiy qismi sifatida o'simliklar yerning asosiy biomassasini tashkil etadilar va biosferada modda aylanishini ta'minlaydi. Kuzatishlarga ko'ra o'simliklar 180-200 mlrd tonna CO₂ ni yutib havoga kislorodni ajratib chiqaradilar. O'simliklar iqlimni mo'tadillashtirishda ham katta rol o'ynaydi. O'simliklar aholi yashash joylarini zararli fizik ta'sirlardan, zararli changlar va shovqin suronlar, gazlardan himoyalovchi tabiiy vosita vazifasini ham o'taydilar.*

***Kalit so'zlar:** Ekologik xavfsizlik, Ernest Gekkel, oikos, biomassa, fotosintez, transpiratsiya, fitonsidlar, radiatsiya, cho'llashish.*

***Annotation.** As a component of nature and ecology, plants make up the main biomass of the earth and ensure the circulation of matter in the biosphere. According to observations, plants absorb 180-200 billion tons of CO₂ and release oxygen into the air. Plants also play a major role in climate moderation. Plants also act as a natural means of protecting residential areas from harmful physical effects, harmful dust, noise, and gases.*

***Key words:** Ecological security, Ernst Haeckel, oikos, biomass, photosynthesis, transpiration, phytoncides, radiation, desertification.*

***Аннотация.** Являясь составной частью природы и экологии, растения составляют основную биомассу земли и обеспечивают круговорот вещества в биосфере. По наблюдениям растения поглощают 180-200 миллиардов тонн CO₂ и выделяют в воздух кислород. Растения также играют важную роль в смягчении климата. Растения также выступают естественным средством защиты жилых территорий от вредного физического воздействия, вредной пыли, шума и газов.*

***Ключевые слова:** Экологическая безопасность, Эрнст Геккель, ойкос, биомасса, фотосинтез, транспирация, фитонциды, радиация, опустынивание.*

“Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan. Tabiat va inson o‘zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo‘ladi. Bu qonuniyatlarning buzilishi o‘nglab bo‘lmas ekologik falokatlarga olib keladi”. “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga oid Davlat dasturlarida ko‘zda tutilgan boshqa vazirlarni hal etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” gi Farmoni qabul qilindi.”

Tabiatning muhim tarkibiy qismi sifatida o‘simliklar yerning asosiy biomassasini tashkil etadilar va biosferadagi modda aylanishini ta‘minlaydilar. Yerdagi biomassasining 99% i o‘simliklar hissasiga to‘g‘ri keladi. O‘simliklardagi fotosintez jarayoni natijasida barcha suvlar 5,8 mln. yilda, atmosferadagi kislorod 5800 yilda, karbonat angidridi 7 yilda bir marta yangilanib turadi. Ularda kechadigan fotosintez jarayoni tufayli Yerdagi dastlabki organik modda sintez bo‘ladi. Bu bilan ular Yer biosferasining bir me‘yordagi faoliyatini ta‘minlaydilar.

Hisob kitoblarga ko‘ra yer yuzasidagi o‘simliklar 180-200 mlrd. tonna CO₂ ni yetib, havoga kislorodni ajratib chiqaradilar. Bir gektar yashil ekinzor sutka mobaynida 5 ming kishining nafas chiqarishidan hosil bo‘ladigan CO₂ ni yutish imkoniyatiga ega. Agar o‘simliklar qoplami, ayniqsa, o‘rmonlar kengaytirilsa hozirgi paytda havoda CO₂ ning ko‘payib borishi hisobiga yuz berayotgan havo dimiqishi yoki issiqxona effekti muammosini oldini olish mumkin. Olimlarning ta‘kidlashlaricha, biosferaning o‘z-o‘zini tozalash xususiyatining qariyb 99% o‘simliklar hissasiga to‘g‘ri kelar ekan O‘simliklar iqlimni mo‘tadillashtirishda ham katta rol o‘ynaydi.

Fotosintez transpiratsiya jarayonlarida ular ko‘p miqdordagi energiyani yutish va suvni bug‘latish hisobiga atrof-muhitda salqin mo‘tadil mikroiklimni vujudga keltiradi. Issiq va sovuq shamollar tezligini pasaytirib beradi. Ortiqcha quyosh radiatsiyasidan tirik organizmlarni himoya qiladi. Asosan bu xususiyatlar aholi zich, issiq iqlimli hududlarda, shaharlarda katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘simliklar dunyosining sanitar- gigiyenik sog‘lomlashtirish va shifobaxshlik ahamiyatlari ham beqiyosdir. Olimlar tomonidan o‘rmon havosida 300 turdagi xushbo‘y, efir moyli va boshqa birikmalar mavjudligi qayd etilgan. Bir qator daraxt va butalar o‘zlaridan fitonsidlar deb ataluvchi birikmalar ajratish xususiyatiga ega. Bir gektar keng bargli daraxtzor sutkasiga 2 kg nina barglisi esa 4-5 kg fitonsid ajrata oladi. Bu birikmalarning ko‘pchilligi havo, tuproq va suvdagi patogen mikroorganizmlarni yo‘qotish xossasiga ega. Masalan tuya (Kanada mojevelnigi) daraxti atrofi o‘ralgan xonada mikroblar sonini 2/3 qismigacha kamaytira oladi.

Dub va pixtaning bargi masofadan turib ichburug‘ va qorin tifi mikroblarini o‘ldira oladi. Terak, olma va evkaliptlar gripp virusini, karam va sarimsoq esa sil mikroblarini tarqalishiga to‘sqinlik qiladi. O‘simliklar aholi yashash joylarini zararli fizik ta’sirlardan, shovqin-suron, chang va zararli gazlardan, hatto radiatsiyadan himoyalovchi tabiiy vosita vazifasini ham o‘taydilar. Ayniqsa havodagi changlarni ushlab qolishda o‘simlik barglari katta rol o‘ynaydi. Masalan, o‘monlarda va daraxtzorlarda shaharga nisbatan havodagi chang 21-86% ga, mikroblar 19-44% ga, doimiy radiatsiya darajasi esa 2 marta past bo‘ladi. Hozirda keng avj olib borayotgan umumsayyoraviy ekologik muammolardan biri bo‘lgan “cho‘llashish ” jarayonini oldini olishda o‘simliklar asosiy rol o‘ynashi mumkin.

Respublikamizning quruq iqlimli cho‘l mintaqalaridagi qumliklarni mustahkamlashda qurg‘oqchilik o‘simliklardan bo‘lgan saksovul, yantoq kabilarning ahamiyati beqiyosdir.

Sayyoramizdagi hayot biosferadagi tabiiy muvozanat, tirik mavjudotlarning normal yashashi, xalq xo‘jaligining ko‘p sohalaridagi ishlab chiqarish unumdorligi, insonlarning jismoniy va ma‘naviy barkamolligi o‘simliklar dunyosining holati bilan uzviy bog‘liq ekan. Aynan mana shu holatlar o‘simliklarning ekologik ahamiyatini va o‘z-o‘zidan ularni muhofazalash zaruratini belgilab berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. P.S.Sultonov “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari” “ Musiqa” nashriyoti Toshkent 2007.
2. X.X.Zokirov, Sh.A.Qo‘ldosheva “Ekologiya va tabiatni muhofaza qilishning umumiy masalalari” Termiz 2009.
3. Ruzmatov.E.Yu, Qo‘ziboev.Sh.M, Tojiboev M.U “Bioekologiya (O‘simliklar ekologiyasi) Andijon 2020.
4. www.lex.uz.

NOYOB DORIVOR O‘SIMLIKLAR VA ULARNING UCHRASH JOYLARI

Mo‘minboyev Diyorbek Jasurbek o‘g‘li

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Farmatsiya fakulteti 2-kurs talabasi

e-mail: diyorbekmominboyev@gmail.com

Saidov Sobirjon Baxrom o‘g‘li

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

1-son Davolash fakulteti 4-kurs talabasi

***Annotatsiya:** Bu maqolada biz dorivor o‘simligining hayotiy shakli, o‘simlikning morfalogik tuzilishi, dorivor xususiyati, inson hayotidagi ahamiyati, undan oqilona foidalanish va undan damlama tayyorlash usullari haqida tanishib chiqamiz.*

***Tayanch iboralar:** Shirinmiya(qizilmiya), dukkakdoshlar, glitsirizin, saxaroza, fruktoza, glyukoza, oshlovchi moddalar, flavonoid *Osimum Basilicum, Lamiaceae, Xunan, Osimum Basilicum ‘Thailand’, Krishna Tulsi, Ram Tulsi, Vana Tulsi, Hindiston, Yalpiz, dorivor o‘simliklar, mentol, efir moy, aromatik.**

Ishning vazifasi: Biz bu o‘simlikning uchrash joylari, o‘zimizda bu o‘simlikdan qanday foidalanishayotgani va qanday foidalansak moddiy foida ko‘rish haqida batafsil gaplashamiz.

Material va uslublar: “Dori-darmonlarni tabiatdan o‘rganing, inson izlayotgan narsani u allaqachon yaratgan ” bejizga biz bu maqolamizni shu ibora bilan boshlamadik. Chunki bizning ko‘pchilik kasalimizga shifo bu tabiatimiz bizga inom qilgan dorivor o‘simliklardir. Bugungi kunda dorivor o‘simliklarga bo‘lgan qiziqish tobora ortib bormoqda, butun dunyo pandemiyasida insonlar sog‘lig‘iga alohida e‘tibor berishi, salomatlik sirlaridan xabardorligi ortishi, qarigan va surunkali kasalliklarga chalingan insonlar immun tizimini faollashtirish uchun tabiiy vositalarni afzal ko‘rishi, tabiiy vositalarning mutloq zararsizligi va foydasi ushbu sohada ilmiy tadqiqotlarga investitsiyalar hajmining va xalqaro bozorlardagi dorivor o‘simliklarga bo‘lgan talabning keskin ortishiga sabab bo‘ldi. O‘zi biz muhokama qilayotgan “Dorivor o‘simliklar” tushunchasi nima? Dorivor o‘simliklar — odam va hayvonlarni davolash, kasalliklarning oldini olish uchun, shuningdek, oziq-ovqat, atir-upa va kosmetika sanoatida ishlatiladigan o‘simliklar — giyohlar. Yer yuzida dorivor o‘simliklarning 10—12 ming turi borligi aniqlangan. 1000 dan ortiq o‘simlik turining kimyoviy, farmakologik va is xossalari tekshirilgan. O‘zbekistonda dorivor o‘simliklarning 700

dan ortiq turi mavjud. Shulardan tabiiy sharoitda o‘sadigan va madaniylashtirilgan 120 ga yaqin o‘simlik turlaridan ilmiy va xalq tabobatida foydalaniladi. Hozirgi davrda tibbiyotda qo‘llaniladigan dori-darmonlarning qariyb 40—47% o‘simlik xom ashyolaridan olinadi. O‘simliklar murakkab tuzilishiga ega bo‘lgan jonli tabiiy kimyoviy laboratoriya bo‘lib, oddiy noorganik moddalardan murakkab organik moddalar yoki birikmalarni yaratish qobiliyatiga ega. Dorivor o‘simliklarning quritilgan o‘ti, kurtagi, ildizi, ildizpoyasi, tunganagi, piyozi, po‘stlog‘i, bargi, guli, g‘unchasi, mevasi (ur‘ugi), danagi, sharbati, qiyomi, toshchoyi, efir moyi va boshqalardan doridarmon tarzida foydalaniladi.

O‘zbekistonda eng keng tarqalgan dorivor o‘simliklar rayhon , kashnich , arpabodiyon, yalpiz, sebarga hisoblanadi. Biz bugun shulardankabi dorivor o‘simligining tarkibi va undan nima maqsadlarda foidalanish bilan tanishib chiqamiz. Ko‘pchilik dorivor o‘simliklar

Yalpiz

Yalpiz(Mentha) — labguldoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik, dorivor va efirmoyli



o‘simlik.Yalpiz butun yil davomida o‘sadi. U shimoliy yarim sharning iliq iqlimli mintaqalarida 20—25 turi tarqalgan. Yalpiz yorug‘sevar, namsevar o‘simlik. O‘simlik uzoq vaqt davomida bog‘larda va sabzavot bog‘larida, ayniqsa ko‘pincha Kavkazda o‘stirilgan.O‘zbekistonda yalpizni4 turi yovvoyi holda o‘sadi. Bular: suv yalpizi, osiyo yalpizi, taxir (achchiq) yalpiz va jingalak yalpiz. Poyasi tik shoxlangan, bo‘yi 25—100 sm gacha, barglari qarama-qarshi

joylashgan, rombsimon, nashtarsimon yoki tuxumsimon, gullari chala soyabonsimon to‘pgulga yig‘ilgan, binafsharang. May-oktabr oylarida gullaydi . Mevasi yong‘oq bo‘lib, unda birdan to‘rttagacha urug‘ bo‘ladi

Yalpiz o‘simligining ahamiyati

Qadimgi va o‘rta asr tibbiyot adabiyotlarida yalpiz dorivor o‘simlik deb hisoblangan. Bosh og‘rig‘i, ichki qonash, tinchlantiruvchi vosita sifatida, oshqozonni kuchaytirish, ovqat hazm qilish jarayonini yaxshilash, ishtahani ochish, hiqichoqni yo‘qotish va boshqalar uchun tavsiya etilgan.

Shirinmiya o‘simligi haqida



Shirinmiya, qizilmiya — dukkakdoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik ildizpoyali begona o‘t. Poyasi tik, bo‘yi 20-50 sm ba‘zan 40-150 sm, shoxlangan, ba‘zan shoxlanmagan, tuklar bilan qoplangan. Ildizi o‘q ildiz, shoxlangan, 5-6m chuqurlikkacha boradi, ildizpoyalaridan yer ustki novdalari hosil

bo‘ladi. Barglari toq patsimon, uzunchoq. 8-20

sm. Gullari qiyshiq (zigomorf), ikki jinsli, binafsha rang, shoda to‘pgulga yig‘ilgan. Mevasi 3-7 urug‘li dukkak. Urug‘i qattiq, mayda, silliq, mosh rang, 30—35° C haroratda ko‘karadi. Aprelning oxiridan iyungacha gullaydi. Avgustda pishadi. Asosan, Yevropa va O‘rta Osiyoning hammarayonlarida, jumladan, Toshkent, Farg‘ona, Qashqadaryo viloyatlarida tarqalgan.

Daryo yoqalarida, ariq va zovur bo‘ylarida, qumloq yerlarda, tog‘ yon bag‘irlarida, ba‘zan 2500 m balandlikkacha bo‘lgan yerlarda, kam va o‘rta sho‘rlangan tuproqlarda ham o‘sadi. Amudaryo, Sirdaryo, Ural to‘qayzorlarida Shirinmiyaning katta maydonlarni egallagan o‘tloqzorlari uchraydi.

Dorivor xususiyati

Shirinmiya qadimdan qimmatbaho dorivor o‘simlik sifatida ma‘lum. Uning ildizi



tarkibida gormonal faol glitsirizin, saxaroza, fruktoza, glyukoza, oshlovchi moddalar, 30 ga yaqin flavonoidlar va boshqalar bor. Tibbiyotda Shirinmiyaning ildizi va ildiz poyasidan tayyorlangan dorilar bilan yallig‘lanish, allergiya, zaharlanish, Addison kasshtligi, bod, belangi, bo‘g‘ma, sil, chipqon, ekzema va boshqalar kasalliklar davolanadi. Shuningdek, oziqovqat, kimyo va kon metallurgiyasi sanoatida ham ishlatiladi. Shirinmiyaning poyasi tarkibida ko‘p miqdorda oqsil, yog‘, qand, karotin, vitamin S va boshqalar borligidan qimmatbaho

yemxashak hisoblanadi. Undan yaxshi pichan va silos tayyorlanadi. O‘zbekiston FA «Botanika» ilmiy ishlab chiqarish markazida Shirinmiyaning serhosil, qurgoqchilikka va tuproq sho‘rlanishiga chidamli shakllari yaratilgan; urug‘i va ildizpoyasidan ko‘paytirish usullari, afotexnikasi ishlab chiqilgan; yiliga 2-marta hosil olish mumkinligi isbotlangan.

Rayhon

Sistematikasi. Rayhon(*Osimum Basilicum*)Yalpizdoshlar (*Lamiaceae*) oilasiga



mansub bo‘lib, manzarali, dorivor va ziravor ekin sifatida ko‘plab davlatlarda yetishtiriladi. Rayhonni 50dan 150gacha turlari borligi taxmin qilinadi va ularni ko‘pchiligi pazandachilikda va landshaftbop o‘simlik sifatida ishlatildi. Kelib chiqishi. Rayhon o‘simligi qadim-qadimdan Shirin rayhon yoki

Thailand rayhon deb atab kelingan. Uning kelib chiqishi ayrim manbalarda Hindiston sifatida ko‘rsatiladi ammo rayhonni vatani undan ham olisroq Sharq tarixiga borib taqalishini olimlar isbotlashdi. Ya’ni rayhon haqida eramizni 807-yilliklarida Xitoyni Xunan mintaqasida Shirin rayhonyetishtirilganligi haqida manbalar bor. Rayhon yillar davomida Sharqdan G‘arbga ko‘chib o‘tganligi taxmin qilinadi, chunki rayhonni faqat issiq iqlim va yopiq sharoitdagina o‘stirish mumkinligi isbot sifatida keltirildi. Tarixi. Rayhon qadimdan diniy manbalarda ham qo‘llanilib kelingan. Portugaliyada ayrim diniy an’analariga ko‘ra rayhon sevgan insoni uchun sovg‘ani bir qismi bo‘lib ishlatilgan. Qadimgi Yunonistonda esa nafrat ramzi bo‘lib hisoblangan.

Turlari. Rayhonni turlari 50ta(ba’zi adabiyotlarda 150 gacha). Ularning ko‘pchiligi asosan pazandachilikda ziravor ekin, landshaft yaratishda manzarali o‘simlik sifatida ishlatiladi. Ularning ayrimlarini hududlarda muqaddas deb hisoblashadilar. Shirin Rayhon(*Osimum Basilicum*), Genovese Rayhoni(*Osimum Basilicum ‘Genovese’*), Thai Sweet Basil, Lemon Basil, Green Rufles, African blue Basil, Cardinal Basil, Lettuce Basil, Lime Basil, Holy Basil .Bular eng mashhur Rayhon turlari va navlardir. Aytib o‘tganidek ayrim davlatlarda Rayhonni ba’zi turlarini muqaddas sanashadi. Misol uchun Hindistonda Krishna Tulsi(*Ocimum Tenuiflorum*) va Ram Tulsi(*Ocimum Sanctum*), Afrika va Hindistonda Vana Tulsi(*Ocimum Gratissum*). Krishna Tulsi(*Ocimum Tenuifloru*) – quyuq binafsha rangli yaproqlarga va achchiq qalampirli ta’mgaga ega. Ram Tulsi(*Ocimum Sanctum*)-yorqin yashil rangli yaproqlarga va achchiq ta’mgaga ega. Vana Tulsi(*Ocimum Gratissum*)-Afrika, Hindiston, Osiyoda yovvoyi holatda o‘sadi. Ishlatilishi. Rayhon ko‘pchilik davlatlarda iste’mol qilinadi. Quritilgan rayhon odatda Italyan, Vetnam, Tailand hamda ko‘pchilik Osiyo taomlariga xo‘shbo‘ylik baxsh etishi uchun qo‘shib kelinadi. Rayhon tabiiy antibiotikdir- isitma tushirish va bakteriyalarga qarshi kurashuvchi vosita sifatida qadim-qadimdan ishlatiladi. Shuningdek shamollashni davolashda; mushaklar og‘rig‘ini to‘xtatishga;

yallig'lanishni oldini olishda; balg'amni bronxlardan va o'pkalardan haydab chiqarishda; yo'talni davolashda; burun oqishini to'xtatishda ishlatilib kelingan.

Xulosa:

Demak biz bu maqolamizda dorivor o'simligining hayotiy shakillari va uchrash joylari bilan tanishtik. Dorivor o'simliklar xalq tabobatida ishlatib, tarkibida inson salomatligi uchun juda kerakli bo'lgan moddalarni iste'mol qilib, ko'plab kasalliklarni davolashimiz va oldini olishimiz mumkin. Bulardan eng asosiysi yuqori nafas yo'llari hisoblanadi. Faqat dorivor o'simliklar iste'mol qilish jarayonini qattiq nazoratga olishimiz, ya'ni belgilangan miqdoridan ozgina ko'proq iste'mol qilishimiz inson salomatligi uchun katta salbiy oqibatlarga olib kelishi, hatto zaharlashi mumkinligini inobatga olishimiz zarur. Biz O'zbekistonda dorivor o'simliklarni ko'paytirib, farmatsevtika sohasi uchun dorilarni ishlab chiqarishni takomillashtirib va uni to'g'ri yo'lga qo'ya olsak, o'ylaymanki biz o'z maqsadimizga tomon to'g'ri yo'lda ketayotgan hisoblanamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mo'minboyev.D.J, Baxromova.B.Z, Ernazarova.M.SH- YALPIZ(MENTHA) O'SIMLIGINING DORIVOR XUSUSIYATLARI, ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 15(1)-2023 169-172-betlar
2. Dustmurodov.B.Sh, Baxromova.B.Z, Ernazarova.M.SH- RAYHON O'SIMLIGIGA UMUMIY TAVSIF, ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ 15(1)-2023 166-168-betlar
3. Mo'minboyev.D.J- Shirinmiya(qizilmiya) o'simligining dorivor xususiyatlari, Golden Brain 5(1)-2023 126-130-betlar
4. Majidov Abdurashid -O'simliklar olami(botonika) 77 bet 2018-yil
5. Akromjon Yuldashev, Akbar Bahromov, O'ktam Parotovich Paratov-O'zbekiston tabiati.O'simliklar.Atlas 192 bet 2011-yil
6. Komiljon Tojiboyev -Flora Of The Western Tien Shan 344 bet 2015-yil
7. G.P.Yakovlev-Botonika(tibbiyot darsliklari) 879 bet 2018-yil
8. Sharifa Salimova – Giyohlar bilan tillashgan inson(O'quv va metodik qo'llanma) 120 bet 1998-yil
9. Kubayen A.E, Iqromova.N.B-ЖЕНЬШЕНЬ: ЛЕЧЕБНЫЕ СВОЙСТВА И ПРОТИВОПОКАЗАНИЯ. INTERNATIONAL BULLETIN OF MEDICAL SCIENCES AND CLINICAL RESEARCH, 3(2), 52–56.

INSHOOT VA BINOLARGA ZILZILA TA'SIRI NATIJASIDA YUKLAR TAHLILI

Askarov X., Mamajonov M.

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti.

Elektron pochta: asqar.xasanboy7413@gmail.com

***Annotatsiya:** Bu maqolada bino va inshootlarining zilzila bardoshlilikini oshirishga xizmat qiluvchi qurilish materiallarini afzalliklari muhokama qilingan va ishlatilish joylarini taxlil qilinib o'ziga xos xususiyatlari bilan izohlanadi.*

***Kalit so'zlar:** Zilzila, devor, qurilish materiallari, yer, sesmoprognos, qurilish, statika, dinamika, yuklar g'ish devor, tosh devor, yog'och devor.*

Bugungi kunda yer yuzasida sodir bo'layotgan zilzilalar xodisalari O'zbekiston hududida 14 fev mahalliy vaqt bilan soat 05:48 da zilzila sodir bo'ldi. FVV Seysmoprognostik monitoring Respublika markazi xabariga ko'ra, zilzila epitsentri Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani. Zilzila koordinatalari: 38,22 gradus shimoliy kenglik; 66,36 gradus sharqiy uzunlik. Magnituda $M=3,6$. Chuqurlik 10 km. Zilzila epitsentri Toshkentdan 417 km janubiy-sharqda. 23 fevral kuni Toshkent vaqti bilan 05:37 da (23.02.2023 yil, Grinvich bo'yicha 00:37da) Tojikistonda zilzila sodir bo'ldi. Zilzila koordinatalari: 38,51 gradus shimoliy kenglik; 72,84 gradus sharqiy uzunlik. Magnituda $M=5,8$. Chuqurlik 147 km. Zilzila epitsentri Toshkentdan 435 km janubiy-sharqda. O'zbekiston Respublikasi hududida zilzilaning sezilish kuchi Farg'ona 4 ball, 227 km, Andijon 4 ball, 256 km, Namangan 4 ball, 294 km, Sirdaryo 3-4 ball, 413 km, Toshkent 3-4 ball, 435 km, Jizzax 3-4 ball, 467 km, Surxondaryo 3 ball, 509 km, Samarqand 3 ball, 523 km, Qashqadaryo 3 ball, 614 km, Navoiy 3 ball, 666 km, Buxoro 3 ball, 739 km. Bu esa inshoot va binolarga ta'sir etadi. Yani inshoot va binolarga yuklar kelib chiqish sababiga ko'ra asosan ikki guruhga bo'linadi.

1. Tabiiy yuklar.

2. Sun'iy yuklar.

Tabiiy yuklamalar o'zgaruvchan atrof-muhitga bog'liq bo'lib, uchga bo'linadi:

1. Meteorologik.

2. Gravitatsion.

3. Zilzilaviy.

Yuklar ta'siriga qarab quyidagicha bo'lishi mumkin:

— doimiy va vaqtincha;

— doimiy-tabiiy (binoning asosiy qismlarining vazni);

— Yerning bosimi.

Vaqtincha yuklar uzoq muddatli, qisqa muddatli va o'ziga xos yuklaiga bo'linadi:

— uzoq muddatli yuklar: binoning ichidagi texnik jihozlar;

— qisqa muddatli yuklamalar: odamlar vazni, saqlanadigan yuk, harakatdagi transport, qor va muz bilan qoplanish, shamol kuchi;

— o'ziga xos yuklar: yer strukturasi buzilishiga bog'liq.

Zilzila kuchi — zilzila paytida tebranishning binolarga ta'siri. Zilzila ko'plab vayronalariga sabab bo'ladi. Shu sababli zilzila bo'ladigan hududlarda maxsus choralarni ko'rish kerak, Inshootga ta'sir etadigan har qanday tashqi kuchlar **yuklar** (nagruzkalar) deb ataladi. Yuklar ta'sir etish xarakteri, ta'sir etish ko'rinishi, ta'sir etish usuli, ta'sir etish joyiga qarab turli xillarga bo'linadi (klassifikatsiyalanadi). 1. Yuklar qo'yilish vaqtining davomiyligiga qarab **statik** va **dinamik** yuklarga bo'linadi.

Ta'kidlab o'tish joizki, real hollarda yukni bir nuqtaga to'plab bo'lmaydi. Aslida yuk ma'lum yuzachaga ta'sir etadi. Agar yuzachaning o'lchamlari konstruktsiya elementlarining o'lchamlariga nisbatan kichik bo'lsa, ma'lum xatoliklarga yo'l qo'ygan holda, yuk yuzachaning og'irlik markaziga qo'yilgan, deb qabul qilinadi. Jism sirtiga ta'sir etuvchi yuklardan tashqari uning hajmi bo'ylab ta'sir etuvchi kuchlar ham bo'ladi. Jismning xususiy og'irligi, inersiya va magnetizm kuchlari ana shular jumlasidandir. Hisob jarayonida ular ham jism hajm ining ma'lum nuqtasiga to'planadi. Bunday hollarda xududlardan kelib chiqib bino inshootlarini devor

materialiga ko'ra va zilzila magnitudasidan va sitatistik ma'umotlarni tahlilidan kelib qurish maqsadga muvofiqdir. 1. *G'isht devorli*. 2. *Tosh devorli*. 3. *Paxsa devorli*. 4. *Yog'och devorli* va h. k.

ADABIYOTLAR

1. N.A. Samig'ov "Qurilish materiallari va buyumlari" darslik. Toshkent Cho'lpon 2013-yil.
2. A.I. Adilxodjaev, F.F. Karimova, U.J. Turgunbaev "Qurilish materiallari" darslik, Toshkent: . -2017-yil.
3. H.M. Bekchanov "Mahalliy hom ashyo asosida devorbop g'ishtning tarkibi va xossalari tadqiq qilish" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi. TAQI 2020.
4. Askarov, X. A., Karimov, I. T., & Mo'Ydinov, A. (2022). REKTIFIKATSION JARAYONLARINING KOLONNALARDA MODDIY VA ISSIQLIK BALANSLARINI TADQIQ QILISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 246-250.
5. Abdulkakhorovich, A. H., & Muhammadsodikov, K. D. (2021). Improving the design of internal plates in columnar apparatus. *The American Journal of Engineering and Technology*, 3(05), 1-8.
6. Askarov, X. A., Askarova, M. B. Q., & Axmadaliyev, U. S. O. (2021). Bino va inshootlarni qurishda ishlatiladigan g'ishtlarning tahlili. *Scientific progress*, 1(6), 1112-1116.
7. Askarov, X. A., Egamberdiyeva, S. A., & Maxmudov, S. M. (2022, November). "LEGO" G'ISHT ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIYASI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE DEDICATED TO THE ROLE AND IMPORTANCE OF INNOVATIVE EDUCATION IN THE 21ST CENTURY* (Vol. 1, No. 7, pp. 102-106).
8. METALL TO'SINLI KONSTRUKSIYALAR TURLARINI TAXLILI 189-191 A Abduraxmonov, X Askarov - GOLDEN BRAIN, 2023

СОСТОЯНИЕ МИКРОЭЛЕМЕНТНОГО СТАТУСА У ДЕТЕЙ БОЛЬНЫХ ОСТРОЙ РЕСПИРАТОРНО-ВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИЕЙ

Худжанова М.А

Доцент кафедры нормальной физиологии СамГМУ

Шодиева.Д.Г

Ассистент кафедры микробиологии, вирусологии и иммунологии СамГМУ

Холжигитов.Х.Т

Студент СамГМУ

***Аннотация:** Острые респираторно-вирусные инфекции остаются самыми частыми и самыми распространенными заболеваниями детского возраста. Причем максимальная частота приходится на ранний детский возраст. Достаточно отметить, что нормальный здоровый ребенок 2-3 лет переносит в среднем 4-5 эпизодов острых респираторно-вирусных инфекций в год. Значительное число респираторной инфекции протекает легко и не требует проведения серьезных лечебных мероприятий. Однако многие из них отвлекают родителей от трудовой деятельности, а также такие проявления как высокая температура тела ребенка и кашель являются причиной частого обращения к врачам. Хотя при острых респираторно-вирусных инфекциях изучены многие стороны обмена веществ, однако изучение микроэлементного статуса при данной патологии исследованы недостаточно.*

Актуальность. Изучить микроэлементный статус у детей, больных острой респираторно-вирусной инфекцией, путем исследования эссенциальных микроэлементов – меди и цинка.

Материал и методы исследования. Состояние микроэлементного статуса нами изучено у 18 детей больных острой респираторно-вирусной инфекцией в возрасте от 3-х месяцев до 3-х лет, которые находились на стационарном лечении в отделениях детской реанимации и интенсивной педиатрии №1 СФРНЦЭМП. Всем детям в день поступления были проведены общеклинические лабораторно-инструментальные методы исследования.

После уточнения диагноза у обследованных детей неинвазивным путем определены содержания микроэлементов - меди и цинка в волосах. Исследования проводились в первые дни госпитализации больных в стационар. Концентрация микроэлементов изучена в лаборатории макро и микроэлементов СамГУ атомно-абсорбционным методом с помощью спектрального анализа.

Результаты и их обсуждение. Проведенная работа показала, что содержание меди у детей больных острой респираторно-вирусной инфекцией было ниже нормы и составило $3,8 \pm 0,78$ мг/мл, что было достоверно ниже по сравнению с показателями здоровых детей контрольной группы ($5,33 \pm 0,64$ мг/мл; $P < 0,01$).

Уровень цинка у всех обследованных больных также был ниже нормы и составил в среднем $51,2 \pm 9,67$ мг/мл, что достоверно различалось с показателями детей контрольной группы ($66,19 \pm 10,53$ мг/мл; $P < 0,01$).

Вывод. Полученные результаты показали, что при данной патологии имеет место нарушение обмена микроэлементов, что выражалось в снижении концентрации меди и цинка в волосах у обследованных детей.

Выявленные нами данные позволяют сделать заключение, о необходимости проведения коррекции содержания указанных микроэлементов у больных детей с острой респираторно-вирусной инфекцией.

Использованная литература:

1. Annayeva, D. (2022). CICHORIUM INTYBUS LISOLATION OF ENDOPHYTIC MICROORGANISMS FROM PLANTS AND IDENTIFICATION OF BIOTECHNOLOGICAL POTENTIAL. Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences, 2(6), 54–61. извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/1755>
2. Annayeva, D. G. Y., Azzamov, U. B., & Annayev, M. (2022). ODDIY SACHRATQI (CICHORIUM INTYBUS L) O‘SIMLIGIDAN ENDOFIT MIKROORGANIZMLAR AJRATIB OLIH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(5-2), 963-972. <https://cyberleninka.ru/journal/n/oriental-renaissance-innovative-educational-natural-and-social-sciences>
3. Azimovich, A. U. B., G‘iyosovna, S. D., & Zokirovna, M. M. (2022). XLAMIDIYANING INSON SALOMATLIGIGA TA‘SIRINI MIKROBIOLOGIK TAHLILLI VA DIOGNOSTIKASI. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1(11), 153-161. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7305057>
4. Giyosovna, S. D. (2023). ODDIY SACHRATQI (CICHORIUM INTYBUS L) O‘SIMLIK QISMLARIDAN ENDOFIT BAKTERIYALARNING SOF

- KULTURALARINI AJRATISH USULLARI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 387-393. <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/3573>
5. Shodiyeva, D. (2023). BIO-MORPHOLOGICAL CHARACTERISTICS, GEOGRAPHICAL DISTRIBUTION AND USE IN TRADITIONAL MEDICINE OF CICHORIUM INTYBUS. *GOLDEN BRAIN*, 1(2), 252-256. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1337>
6. Shodiyeva, D. (2023). SANOAT MIKROBIOLOGIYASINING BIOTEKNOLOGIYADAGI AHAMIYATI. *GOLDEN BRAIN*, 1(2), 116-120. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1310>
7. Shodiyeva, D. (2023). INDOLIL SIRKA KISLOTA MIQDORINI ANIQLASH. *GOLDEN BRAIN*, 1(2), 321-324. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1361>
8. Dildora, S. (2023). CICHORIUM INTYBUSDAN OLINGAN BACILLUS AVLODIGA MANSUB BAKTERIYALARINING BIOTEKNOLOGIK POTENSIALI VA MIKROBIOLOGIYADAGI ISTIQBOLLARI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(15), 726-732. <https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/3359>
9. Annayeva, D. G. Y., Azzamov, U. B., & Annayev, M. O. S. (2022). O'SIMLIGIDAN ENDOFIT MIKROORGANIZMLAR AJRATIB OLISH.
10. Dildora, S., & Mekhriniso, B. (2023, January). APPLICATION AREAS OF BIOLOGICALLY ACTIVE METABOLITES PRODUCED BY ENDOPHITE BACTERIA. In *E Conference Zone* (pp. 92-95). <http://www.econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/1941>
11. Shodiyeva Dildora, & Bobakandova Mekhriniso. (2023). APPLICATION AREAS OF BIOLOGICALLY ACTIVE METABOLITES PRODUCED BY ENDOPHITE BACTERIA. *E Conference Zone*, 92–95. Retrieved from <http://www.econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/1941>
12. Жамалова , Ф. А., Болтаев , К. С., & Шодиева , Д. Г. (2023). ВОЗБУДИТЕЛИ МИКОЗОВ СЛЕПНЕЙ НА ТЕРРИТОРИИ РАЗЛИЧНЫХ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА. *GOLDEN BRAIN*, 1(3), 28–34. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1465>
13. Makhmudova Zakro Vahobovna, Shodiyeva Dildora, & Olimjonova Sadokat Gulomjon's daughter. (2023). BIOLOGY AND BIOTECHNOLOGY OF ENDOPHITE MICROORGANISMS. *World Bulletin of Public Health*, 18, 115-117. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbph/article/view/2074>
14. Olimjonova , S. G. qizi, & Shodiyeva , D. G. (2023). BAKTERIYALARNI SUYUQ VA QATTIQ OZUQA MUHITLARIDA O'STIRISH SHAROITLARI. *GOLDEN BRAIN*, 1(3), 182–188. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1496>

15. Shodiyeva , D. G., & Annayev , M. G. o'g'li. (2023). DOMINANT MICROORGANISMS IN CICHORIUM INTYBUS. *GOLDEN BRAIN*, 1(3), 175–181. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1492>
16. G'iyosovna, S. D. (2023). ODDIY SACHRATQI (CICHORIUM INTYBUS L) O'SIMLIGIDAN ENDOFIT MIKROORGANIZMLAR AJRATISH VA ULARNING BIOTEXNOLOGIK POTENSIALINI BAHOLASH. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1506>
17. Shodiyeva , D. G. (2023). ODDIY SACHRATQI (CICHORIUM INTYBUS L) O'SIMLIGIDAN ENDOFIT MIKROORGANIZMLAR AJRATISH VA ULARNING BIOTEXNOLOGIK POTENSIALINI BAHOLASH. *GOLDEN BRAIN*, 1(3), 230–240. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1506>
18. Shodiyeva Dildora G'iyosovna, & Tohirova Jayrona Izzatullayevna. (2023). VAKSINA OLIH TEXNALOGIYASI VA UNING AHAMIYATI. *GOLDEN BRAIN*, 1(3), 256–260. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7605291>
19. Boltayev , K. S., Jamalova , F. A., & Shodiyeva , D. G. (2023). MIKOZLARGA MIKROBIOLOGIK MIKROSKOPIK TASHXIS QO'YISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. *GOLDEN BRAIN*, 1(3), 35–40. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1466>
20. Shodiyeva , D. G., Jamalova , F. A., & Boltayev , K. S. (2023). BACILLUS THURINGIENSIS BAKTERIYALAR ASOSIDA YARATILGAN BIOPREPARATLAR. *GOLDEN BRAIN*, 1(3), 23–27. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1464>
21. Hamza, S., Muzaffar, A. ., Dildora, S., & Ulug'bek, A. . (2023). BACILLUS THURINGINGIENSIS BAKTERIYA SHTAMMLARINING PHASEOLUS VULGARIS O'SIMLIGI BIOMETRIK KO'RSATKICHLARIGA VA RIVOJLANISHIGA TA'SIRI. *Scientific Impulse*, 1(6), 327–332. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/4355>
22. Shodiyeva, D. G., Shernazarov, F. F. o'g'li, & Tohirova, J. I. qizi. (2023). BAKTERIYALARNING IKKILAMCHI BIOLOGIK FAOL METABOLITLAR SINTEZ QILISH XUSUSIYATLARI VA ULARNING FARMASEVTIKADA QO'LLANILISHI. *RESEARCH AND EDUCATION*, 2(1), 269–276. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/re/article/view/1455>
23. Azimovich, A. U. B., G'iyosovna, S. D., & Akmalovich, M. A. (2023). ANTIBIOTIKLAR TA'SIR DOIRASIGA KO'RA KLASSIFIKATSIYASI. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(17), 245-251. <https://cyberleninka.ru/article/n/antibiotiklar-tasir-doirasiga-kora-klassifikatsiyasi>

24. Azimovich, A. U. B., & G'iyosovna, S. D. (2023). O 'SIMLIK O 'SISHI VA RIVOJLANISHIDA FOYDALI MIKROORGANIZMLARNING AHAMIYATI. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(17), 257-260. <https://cyberleninka.ru/article/n/o-simlik-o-sishi-va-rivojlanishida-foydali-mikroorganizmlarning-ahamiyati>
25. Shodiyeva D., Ashirov F., Murodova A. EFFECT OF BACILLUS THURINGIENSIS BACTERIAL STRAINS ON PHASEOLUS VULGARIS PLANT BIOMETRIC INDICATORS AND DEVELOPMENT //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. D2. – C. 49-56. <https://cyberleninka.ru/article/n/effect-of-bacillus-thuringiensis-bacterial-strains-on-phaseolus-vulgaris-plant-biometric-indicators-and-development>
26. Shodiyeva D., Shernazarov F. ANALYSIS OF THE COMPOUNDS PROVIDING ANTIHELMITIC EFFECTS OF CHICORIUM INTYBUS THROUGH FRACTIONATION //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. D2. – C. 64-70. <https://cyberleninka.ru/article/n/analysis-of-the-compounds-providing-antihelmitic-effects-of-chicorium-intybus-through-fractionation>
27. Vahobovna , M. Z. ., G'ulomjon qizi, O. S. ., & G'iyosovna , S. D. . (2023). CICHORIUM INTYBUSNI AN'ANAVIY TIBBIYOTDA QO'LLANILISHI, FITOKIMYOVIY TARKIBI VA FARMAKOLOGIYADAGI AHAMIYATI. *Scientific Impulse*, 1(6), 1386–1392. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/4776>
28. Giyosovna, S. D. (2023). CICHORIUM INTYBUSDAN YANGI BIRIKMA OLIH VA ULARNING BIOLOGIK TASIRI. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(16), 156-164.
29. Giyosovna, S. D., Mansur ogli, S. S., & Izzatullayevna, T. J. (2023). CICHORIUM INTYBUS KOCHATLARIDAN OLINGAN YANGI KISLOTA FOSFATLARINING KINETIK VA TERMODINAMIK TADQIQOTLARI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(7), 428-434.
30. Giyosovna, S. D., & Abdusalomovna, J. F. (2023). BACILLUS AVLODIGA MANSUB BAKTERIYALARNING ANTIMIKROB VA ANTOGONISTIK XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, 1(6), 1852-1858.
31. Bobakhandova Mekriniso Fazliddinovna, & Shodiyeva Dildora G'iyosovna. (2023). USAGE OF CICHORIUM INTYBUS IN TRADITIONAL MEDICINE, PHYTOCHEMICAL COMPOSITION AND IMPORTANCE IN PHARMACOLOGY. *GOLDEN BRAIN*, 1(5), 43–49. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7663888>

DIAREYA BILAN KASALLANGAN BOLALARDA AJRALUVCHI ICHAK MIKROFLORALARI

Shayqulov Hamza Shodievich

hamzashayqulov@gmail.com

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, katta o'qituvchisi

Mamadiyorova Mashxura Mashrabovna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, pediatriya fakulteti talabasi

Hayitov Safarali Mahammadi o'g'li

Samarqand davlat tibbiyot universiteti, pediatriya fakulteti talabasi

***Annatsiya.** Ilmiy ishda deareya bilan kasallangan kattalar va bolalarning ichak mikroflorasi urganilib undagi o'zgarishlar jismonan sog'lom - nazorat guruhidagilarning ichak mikroflorasi ko'rsatkichlariga nisbatan qiyosiy ma'lumotlar yoritilgan. Bunda etiologiyasida dizenteriya bo'lmagan o'tkir ichak kasallklari bilan kasallangan jami 111 bemor va qiyoslash uchun 186 nafar sog'lom (116 bola, 70 kattalar) o'rganilgan.*

***Kalit so'zlar.** E.coli, deareya, mikroflora, disbakterioz, o'tkir ichak kasallklari, shartli patogen, gemolitik, esherixiya, ichburug', enterokokk, stafilokokk, zamburug'.*

Kirish. So'nggi yillarda shartli patogen mikroorganizmlar keltirib chiqaradigan kasalliklar salmog'ining ortishi munosabati bilan yallig'lanish kasalliklarida ichak normal mikroflorasi vakillarining rolini o'rganishga qiziqish sezilarli darajada ortdi [3, 5-11,17-19]. Qat'iy va fakultativ ichak floralarning ko'plab vakmlari shartli patogenlardir [1, 4-7, 9, 14-19].

Antibiotiklar va kimyoterapevtik preparatlarning keng qo'llanilishi tufayli odamlar ichagi normal mikroflorasi vakillaridan bo'lgan shartli patogenlarning turli xil kasalliklarni keltirib chiqarishdagi rolini urganish sezilarli darajada oshdi [3,5,11-18].

Ichak mikroorganizmlarining keng vakillari orasida gemolitik esherixiyalar bolalar ichak patologiyasida katta ahamiyatga egadir [6,17,20].

Ishning maqsadi. Ushbu maqolada biz ichak yallig'lanish kasalliklari bilan kasallanganlar va jismonan sog'lom bo'dgan kattalar va bolalarning ichak mikroflorasi tarkibini o'rganganishga ta'lluqli ma'lumotlarni taqdim etamiz.

Material va uslublar. Etiologiyasida dizenteriya (ichburug‘) bo‘lmagan o‘tkir ichak kasalliklari bilan kasallangan jami 111 bemor va qiyoslash uchun 186 nafar sog‘lom (116 bola, 70 kattalar) o‘rganildi.

Materiallar (ichak ajratmasi-najas) kasalxonaga yotqizilganidan keyin 1-3 kunlarda olindi. Mikrofloraning sifat va miqdoriy Sog‘liqni saqlash vazirligining metodologiyasi, disbakterioz diagnostikasi bo‘yicha ko‘rsatmalarga muvofiq amalga oshirildi [12].

Jismonan sog‘lom bolalarning najaslarini bakteriologik tadqiqotlar natijalari ichak kasalliklari bilan kasallanganlardagi mikrofloraning tarkibi va xususiyatlarining o‘zgarishini tavsiflash uchun asos bo‘ldi.

Olingan natijalar. Jismonan sog‘lom bolalarning ichak ajratmalari tarkibida E.coli bakteriyalari 100% holatlarda ajralishi kuzatildi. Enterokokklar biroz kamroq ($84,5 \pm 3,3\%$) ajralishi kuzatildi.

Ichak o‘tkir yuqumli kasalliklari bilan kasallanganlarning ichak florasida chuqur o‘zgarishlar kuzatildi.

Avvalo, patogenlik belgilariga ega bo‘lgan mikroorganizmlar soni keskin ortganligi aniqlandi. Sog‘lom va kasallangan bolalarning natijalari o‘zaro qiyoslanganda, kasallangan bolalarda gemolitik va enteropatogen esherixiya serotiplari deyarli uch baravar ortib ketishi ma’lum bo‘ldi.

Sog‘lom bolalar va bemor bolalardan ajratilgan gemolitik ichak floralari o‘zaro qiyoslanganda, sog‘lom bolalarga nisbatan bemor bolalarda gemolitik stafilokokklar to‘rt baravar ko‘p - 54,9 foiz hollarda uchrashi, va ulardan 14,4 foizida tillarang stafilokokklar bo‘lib, sog‘lom odamlarda ular aniqlanmadi. Gemolitik enterokokklar nazoratdag sog‘lom guruhdagilarga nisbatan bemorlarda besh marotaba ko‘p aniqlandi.

Achitqi va achitqisimon zamburug‘lar sog‘lom odamlarda 5,1 foizni tashkil etgan bo‘lsa, bemorlarda 3,5 martadan ko‘proq aniqlandi. Xuddi shunday ko‘rsatgich protey tayoqchalariga nisbatan ham kuzatildi.

Dizenteriya etiologiyali ichak o‘tkir bakterial kasalliklarining aksariyat hollarida uch yoki to‘rt (32,4% va 42,3%) turdagi shartli patogen mikroorganizmlarning assotsiatsiyasi ko‘rinishida aniqlandi. Bunda ko‘pincha ichak tayoqchalari bilan birgalikda + enterokokklar + stafilokokklar + proteus tayoqchalarining o‘zaro assotsiatsiyasi qayd etildi.

Tadqiqotlarimizda gemolitik enterokokklar surunkali kolit va enterokolitdari bo‘dgan bemorlarda sog‘lom odamlarga qaraganda deyarli sakkiz marta ko‘p, surunkali dizenteriya bilan og‘rigan bemorlarda esa uch baravar ko‘proq ajratildi.

Ichak disbakteriozining ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lgan achitqi va achitqisimon zamburug‘larning uchrashi bo‘yicha ma’lumotlar ham qiziqarlidir. Ushbu

mikroorganizmlar surunkali kolit bilan og‘rigan bemorlarning deyarli yarmida (47,4%) va dizenteriyaning o‘tkir va surunkali shakllari bo‘lgan bolalarning 25 foizidan ajratilgan. Bu floralar nazorat guruhi bo‘lgan jismonan sog‘lom odamlarda 5,1-5,7% hollarda aniqlandi.

Xulosa:

1. Diareya kuzatilgan bolalarda patogenlik omillari bo‘lgan mikroorganizmlar soni keskin ortadi (gemolitik ichak tayoqchasi 85%, gemolitik stafilokokklar 54,9%, gemolitik enterokokklar 62%, achitqi va achitqisimon zamburug‘lar 25% hollargacha).

2. Gemolitik esherixiyalar bemor bolalardan yuqori chastotalarda ($85,0 \pm 1,7$) uchrasa va sog‘lom bolalarda past chastotalarda ($8,2 \pm 1,5$) ajralishini va bunday holat diareyaning laboratoriya diagnostikasida e‘tiborga olinishi kerakligi e‘tiborlidir.

References:

1. Аминов З. З. и др. Социальные аспекты и роль питания в стоматологическом здоровье детей и подростков //Academy. – 2019. – №. 10 (49). – С. 50-56.
2. Мухамедов И. М., Юсупов М. И., Шайкулов Х. Ш. ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫЙ ДИАГНОЗ ЭНТЕРОКОЛИТОВ У ДЕТЕЙ //Innova. – 2022. – №. 2 (27). – С. 35-39.
3. Нарзиев Д., Шайкулов Х. Чувствительность к антибиотикам salmonella typhimurium, находящихся в составе биопленок //Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 60-64.
4. Расулова М. Р., Юлаева И. А., Шодиев Ж. Х. СОВРЕМЕННАЯ КЛАССИФИКАЦИЯХ ПЕРЕЛОМОВ КОСТЕЙ НОСА //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2023. – Т. 1. – №. 17. – С. 120-127.
5. Расулова М., Юлаева И., Шодиев Ж. ПЕРЕЛОМЫ КОСТЕЙ НОСА В ПРАКТИКЕ СУДЕБНО-МЕДИЦИНСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ //Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences. – 2023. – Т. 3. – №. 1. – С. 78-84.
6. Саъдинов П. и др. Клинико-эпидемиологическая характеристика стафилококковых энтероколитов у детей раннего возраста //Журнал проблемы биологии и медицины. – 2014. – №. 3 (79). – С. 151-152.
7. Шайкулов Х. Ш., Худаярова Г. Н. Развитие кишечных расстройств у детей грудного возраста, вызванных различными микроорганизмами и гельминтами //Педиатр. – 2017. – Т. 8. – №. 5.
8. Шайкулов, Х. Ш. Esherixioz bilan kasallangan bolalardan ajratilgan gemolitik E.coli bakteriyalarining antibiotiklarga sezgirligi / Х. Ш. Шайкулов, М. Р. Расулова. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2023. — № 4 (451). — С. 489-491. — URL: <https://moluch.ru/archive/451/99414/>

9. Шайкулов, Х. Ш. Антибиотикочувствительность гемолитических E.coli, выделенных от детей больных эшерихиозом / Х. Ш. Шайкулов, М. Р. Расулова // Молодой ученый. – 2023. – № 4(451). – С. 489-491. – EDN AJSWBL.
10. Шайкулов Ҳамза Шодиевич, Нарзиев Джавохир Убайдуллаевич БОЛАЛАР ИЧАК ЭШЕРИХИОЗИНИ ДАВОЛАШДА АНТИБИОТИКОРЕЗИСТЕНТ ЛАКТОБАКТЕРИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ САМАРАДОРЛИГИ // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. 2023. №17. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/bolalar-ichak-esherihiozini-davolashda-antibiotikorezistent-laktobakteriyalardan-foydalanishning-samaradorligi>
11. Abdumuminova R. N., Bulyaev Z. K., Ch X. N. THE IMPORTANCE OF NITRATES IN FOOD SAFETY //E-Conference Globe. – 2021. – С. 35-37.
12. Abdumuminova R. N., Sh B. R., Bulyaev Z. K. On The Importance Of The Human Body, Nitrates //The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research. – 2021. – Т. 3. – №. 04. – С. 150-153.
13. Hamza, S., Muzaffar, A. ., Dildora, S., & Ulug‘bek, A. . (2023). BACILLUS THURINGIENSIS БАКТЕРИЯ ШТАММЛАРИНИНГ PHASEOLUS VULGARIS О‘СИМЛИГИ БИОМЕТРИК КО‘РСАТКИЧЛАРИГА ВА РИВОЖЛАНИШИГА ТА‘СИРИ. Scientific Impulse, 1(6), 327–332. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/4355>
14. Naimova Z. et al. Hygienic Assessment Of Emission Influence From A Chemical Plant On Population’s Household Conditions, Well-Being And Health //The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research. – 2021. – Т. 3. – №. 01. – С. 76-80.
15. Narbuvaevna A. R., Karimovich B. Z., Mahramovna M. M. Improving Food Safety and Improving the Fundamentals of Reducing the Negative Effects on The Environment //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – Т. 5. – С. 41-46.
